

*Normurodov Oybek Berdimurod o'g'li*

*Guliston davlat universiteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti*

*(99) 472 70 36*

*G'ayratova E'zoza*

*Guliston davlat universiteti 4-bosqich talabasi*

Badiiy asar ko'rkam bo'lishi uchun uning har bir unsuri o'rinli va mukammallikni talab qiladi. Asarning ichki va tashqi tomoni ijodkor mahorati bilan go'zal tarzda payvandlansa, ana shunday nuqtada haqiqiy san'at asari paydo bo'ladi. Mana shu jarayonni Erkin Vohidov she'rlariga tanlangan epigraflar va ularning mavzu yo'nalishiga qay darajada mosligi misolida kuzatish mumkin.

Adabiyotshunoslik lug'atida epigrafga quyidagicha izoh beriladi: *“Epigraf asarning boshlanishida sarlavhadan keyinroq, yoki uning bo'lim,(bob, fasl)lari boshida keltiriluvchi qisqa, odatda, e'tiborli manbalardan (xalq ijodi, mashhur kishilarning purhikmat so'zlari va sh. k.)olingan ko'chirma sitataning bir ko'rinishi. Ko'p hollarda epigraf o'zining aforistik mazmuni bilan asar mazmunini ochib beradi”*. [1, 360 b.] Bundan ko'rinadiki, epigrafning bosh maqsadi asarni tushunishga, uning g'oyalarini chuqurroq anglashga yordam berishdan iborat. Avvalo, shoir ijodi uchun tanlangan epigraflarning manbalarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Mumtoz adiblarimiz ijodidan olingan parchalar. Shoirning “Bizga so'z tegdi kecha”, “Senga baxtdan taxt tilarman”, “Hijron yuki”, “Tola soch” kabi she'rlariga epigraf qilib olingan badiiy parchalarning barchasi mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqdir.

2. Zamondoshlari ijodidan olingan epigraflar.

“Orzu chashmasi” dostoni, “Vafo”, “Turkiston bozori” she'rlariga tanlangan epigraflar shoir zamondoshlarining ijod namunalaridan olingan.

3. Jahon adabiyoti namoyondalarining asarlaridan olingan epigraflar.

Erkin Vohidovning mashhur “Ruhlar isyoni” dostoniga hind shoiri Nazrul Islomning “Tug‘ilgansan ozod, mudom Ozod bo‘lib qol!” misralari epigraf qilingan. Bu misrani bevosita shu guruhga kiritish o‘rinli.

#### 4. Siyosiy adabiyotlardan olingan epigraflar.

Adibning “Davlat ishi” sarlavhali she‘ri uchun “Nikoh va oila” kitobidan quyidagi jumlar epigraf sifatida olingan: “Mamlakatimizda nikohga, asosan, inqilobdan keyingina davlat ishi deb qaraldi”. Bu jumlar bevosita siyosiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, shuning uchun ham tanlangan sitata qonuniy manbadan olingan. Shu o‘rinda diqqatni jalb qiladigan bir jihat shoir ijodiy namunalariga tanlangan birorta ham epigraf xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan bog‘liq emas. Boshqa manbalarda esa epigrafga quyidagicha ta‘rif beriladi: “...*Epigraf...ba‘zan u asarning bosh ma‘nosini anglatsa, ba‘zan o‘qirmanni shu ma‘nodan atay chalg‘itishga qaratilgan bo‘ladi, ba‘zan ushbu asarda asosiy muammoni ifodalaydi*”. [2, 146 b.] Yuqoridagi fikrlardan epigraf haqida uch jihatni anglash mumkin. Shoir ijodida ana shu uch jihatga mos epigraflarni quyidagicha guruhladik:

##### 1. *Asarning bosh ma‘nosini anglatuvchi epigraflar.*

Shoirning “Senga baxtdan taxt tilarman ” she‘ri uchun shoira Nodirabegimning “*Sen g‘anisan, menda bisyor ehtiyoj*” misrasi epigraf qilib olingan. Shoirning ushbu she‘ri “Yoshlik devoni”ga kiritilgan bo‘lib, u g‘azal janrida yozilgan, shu bois ham asar uchun mumtoz matndan epigraf olish asar mazmunini anglashga xizmat qilgan. G‘azalda imkonsiz oshiq(lirik qahramon)ning ichki kechinmalari tasvirlangan. Yoki, “Hijron yuki”da ham xuddi shu kabi mavzu yo‘nalishini ko‘rishimiz mumkin, bunda hijronda qiynalgan, ammo yordan aslo ayrilishni istamagan oshiq kechinmalari tasvirga olingan. She‘r uchun Navoiyning “*Aylagil jondin judo Etkuncha jondin judo*” misralari epigraf vazifasini bajargan. Habibiyning “*Ul pari avlodimu, Yo bashar farzandimu?*” bayti “Tola soch” g‘azaliga epigraf sifatida keltirilgan. Unda “soch” so‘zi bir necha marta takrorlanib o‘zgacha bir joziba bajargan va aynan epigrafning o‘zi g‘azal so‘ngida sitata sifatida keltirilgan. Erkin Vohidovning “Vafo” she‘ri Hamid Olimjon va uning

rafiqasi Zulfiya haqida bo'lib, unda shoironing turmush o'rtog'iga bo'lgan vafo, sadoqat tuyg'ulari qalamga olinadi. She'r ikki qismdan iborat. Birinchi qismga Zulfiyaning quyidagi misralari:

*Sog'inganda izlab bir nishon*

*Qabring tomon men olaman yo'l.*

*Keltirarding menga bir zamon*

*Endi har chog' men eltaman gul.*

2-qismga Hamid Olimjonning:

*“Xalqqa ayting:*

*Men aslo o'lganim yo'q!”*

misralari epigrafdir. “Vafo” she'rining birinchi qismida quyidagi misralarga e'tibor qarataylik:

Umrim bir on sendan ayru bo'lmadi,

Sochlarimga qo'ndi tola-tola oq.

Yillar seni mendan yiroq qilmadi,

Yillar ikkimizni qildi yaqinroq.

Bu satrlar epigraf uchun tanlangan misralar mazmuniga ohangdosh va asar g'oyasini yoritishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari shoirning “Yosh shoirlarga” she'ri uchun Hamid G'ulomning *“Oh sening yoshliging menda bo'lsaydi...”*, “Ruhlar isyoni” dostoni uchun Nazrul Islomning *“Tug'ilgansan ozod, mudom Ozod bo'lib qol!”* misralari, “Orzu chashmasi” dostoni uchun Mirtemirning *“Kecha oydin bahor ayyomi, Qatra-qatra yosh to'kar buloq”* misralari epigraf qilib, asarning bosh g'oyasini, mazmuni ochishqa qaratilgan.

2. *O'qirmanni shu ma'nodan atay chalg'itishga qaratilgan epigraflar.*

Adibning “Davlat ishi”, “Shoir umri” she'rlariga tanlangan epigraflar shular jumlasidandir. “Davlat ishi” she'riga *“Mamlakatimizda nikohga, asosan, inqilobdan keyingina davlat ishi deb qaraldi”* jumlasini epigraf sifatida keltirilib, o'quvchini haqiqatdan ham shundaydir degan fikrga yetaklaydi, biroq she'rni

o'qigan kitobxon buning aksi ekanligini anglaydi. She'rdan olingan ba'zi misralar misolida kuzataylik:

Nikoh davlat ishi, baxtlar yarqiroq,  
Maqtanib olamga doston etganmiz.  
Tirik yetimlarning sonida biroq  
Amerikadan ham o'tib ketganmiz.

Bu yerda davlatning oilaga, nikohga bo'lgan munosabati qog'ozda boshqa, amalda boshqa ekanligi aniq ko'zga tashlanadi. Yuqoridagi "Nikoh va oila" kitobidan olingan fikrlar sirti yaltiroq, ichi qaltiroq qabilidagi quruq shoirlar ekanligini ifodalaydi.

“Shoir umri”ga esa Sayyorning mana bu misralari epigraf qilingan:

*“Mana, men Lermantov yoshiga yetdim,  
Bir shoir umrini yashadim chindan.  
She'riyat ko'kida tik parvoz etdim,  
Parvozim balanddir uchqur lochindan”*,

“Shoir umri” she'rida lirik qahramon(ya'ni ijodkorning o'zi)dan yaxshi shoir chiqmasligi kabi parodaks fikrlar aytilgan va epigrafdan anglashiladigan mazmunning aksi kuzatiladi:

“Mana, men Lermantov yoshiga yetdim,  
Bir shoir umrini yashadim chindan”.  
Qancha qog'ozlarning boshiga yetdim  
Va kekin Lermontov chiqmadi mendan.

3. *Asarda asosiy muammoni ifodalovchi epigraflar.*

Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostoni uchun tanlangan epigraf asarda asosiy muammoni ifodalovchi epigraf guruhini tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodida epigrafning o'rni alohida ahamiyatga ega. Epigraflardan o'rinli foydalanish shoir mahoratini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1].Quronov D., Mamajonov Z. va b. Adabiyotshunoslik lug'ati. T., Akademnashr. 2013.
- [2] Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. T., Kamalak. 2018.
- [2]Vohidov E. Tanlangan asarlar. T., Sharq. 2016.